**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo’lyozma huquqida**
**UDK № 82-293.1:821.111**

**PULATOVA MOHICHEHRA TEMIROVNA**

# Kristofer Marloning uch mashhur tragediyasida qudratli shaxslar inqirozi va fojeasi tasviri

**5A120101 – Adabiyotshunoslik (ingliz)**

**Magistr**
**akademik darajasini olish uchun yozilgan**
**dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar: f.f.d, professor Baqoyeva M.Q.**

**Buxoro 2018**

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Filologiya
Kafedra: Ingliz adabiyotshunosligi
O’quv yili: 2017-2018
Magistratura talabasi: Pulatova Mohichehra
Ilmiy rahbar: f.f.d, professor Baqoyeva M.Q
Mutaxassisligi: Adabiyotshunoslik (ingliz)

# “KRISTOFER MARLONING UCH MASHHUR TRAGEDIYASIDA QUDRATLI SHAXSLAR INQIROZI VA FOJEASI TASVIRI” MAVZUSIDAGI MAGISTRLIK DISSETATSIYASI ANNOTATSIYASI

**Mavzuning dolzarbligi.** Mazkur ilmiy ishning dolzarbligi, bir tomondan, hozirgi davrda buyuk o’tmishdoshlarimizning faoliyatiga qiziqishda namoyon bo’lsa, ikkinchi tomondan, respublikamizda ingliz tilini, ingliz tilida yozilgan asarlarni o’rganishga bo’lgan talab va ehtiyoj bilan belgilanadi. Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga juda katta e’tibor berilmoqda. Yoshlarimizning har tomonlama kamol topishlari, sog’lom fikrlashlari, chet tillarini o’rganishlari, bardam-baqquvat hamda zukko bo’lishlari bugunning talabidir.

Xususan, chet tillarini o’rganishda ko’prik vazifasini bajaruvchi - adabiyot yoshlarni tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga egadir. Ingliz adabiyotining yorqin namoyandasi, Kristofer Marloning buyuk fojealari bizda saxiylik, soddalik, shukr qilish kabi oliyhimmat fazilatlarni tarbiyalaydi. Shu nuqtai nazardan, ushbu asarlarning yurtimizda keng o’rganilmaganligi ham ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari.** Mazkur ishni yozishdan maqsad Kristofer Marloning “Buyuk Temurlang”, “Maltalik yahudiy” hamda “Doktor Faustning fojeaviy taqdiri” asarlarida inson fojeasi sabablarini o’rganishdir.

Ilmiy ish maqsadi oldimizga quyidagi vazifalar qo’yilishini taqozo etdi:

- Ingliz uyg’onish adabiyotining atoqli namoyandasi Kristofer Marloning ijod yo’lini o’rganish;
- Kristofer Marloning “Buyuk Temurlang”, “Maltalik yahudiy” hamda “Doktor Faustning fojeaviy taqdiri” asarlarini o’qib chiqish hamda tahlil qilish;
- Asarlardagi qudratli shaxslar inqirozi va fojeasini o’rganish va ularning sabablarini oydinlashtirish.

**Tadqiqot obyekti va predmeti:** Ushbu magistrlik dissertatsiyamizning predmeti sifatida Kristofer Marloning “Buyuk Temurlang”, “Maltalik yahudiy” hamda “Doktor Faustning fojeaviy taqdiri” asarlari jalb qilindi va ushbu tragediyalardagi qudratli shaxslar inqirozi va fojeasi tasvirlari tadqiqotning obyekti sifatida xizmat qildi.

**Tadqiqot uslubiyati va uslublari.** O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning ilm-fan, ta’lim-tarbiya, chet tillarini o’rganishga doir fundamental asarlari ushbu tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil qiladi.

Tadqiqotni yozish jarayonida badiiy tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalandik. Bu usullar bizga ishimizning obyektini yanada chuqurroq o’rganishga yordam berdi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi.** Kristofer Marloning ushbu asarlari haqida qator ilmiy asarlar yaratilgan. Bularga rus adabiyotshunoslari A.T.Parfyonov, Георгиевская В.В, I.N.Puchkova, A.Yu.Yakubovskiy, o’zbek adabiyotshunoslari X.Karomatov, O.Dadaboyev, B.Axmedov, ingliz-amerika adabiyotshunoslari H.Lamb, J. Marozzi va boshqa asarlarni misol qilib olish mumkin.

Bizning ishimizning yuqorida sanab o’tilgan ishlardan farqi va yangiliki shuki, biz Kristofer Marloning “Buyuk Temurlang”, “Maltalik yahudiy” hamda “Doktor Faustning fojeaviy taqdiri” asarlarini tahlil qilish va ulardagi qudratli shaxslar inqirozi va fojeasi sabablarini oydinlashtirishga harakat qildik.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqi.** Hozirgi adabiy aloqalar har tomonlama kengayib borayotgan davrda diqqatga havola etilayotgan

bu ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyat kasb etishi tabiiy. Undagi tahlil va tadqiqotlar natijasi bo’lgan fikr-mulohazalardan oliy o’quv yurtlarining filologiya yo’nalishiida adabiyotshunoslik bo’yicha ma’ruzalar va maxsus kurslarda, chet el yozuvchilari adabiy faoliyatini o’rganishda, turli xil dasturlar, qo’llanmalar tuzishda foydalanish mumkin.

**Ish tuzilishi va tarkibi.** Mazkur magistrlik tadqiqot ishi Kirish, umuniy tavsif, uch bob, sakkiz fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

**Bajarilgan ishning asosiy natijalari.** Mazkur tadqiqot ishi magistrlik dissertatsiyasi sifatida Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida birlamchi himoyadan o’tib, asosiy himoyaga tavsiya etildi. U asosida ilmiy maqolalar to’plamlarida _ta maqola berilgan.

**Xulosa va takliflarning umumlashtirilgan ifodasi.** Kristofer Marloning “Buyuk Temurlang”, “Maltalik Yahudiy” hamda “Doktor Faustning fojeaviy taqdiri” asarlarining bosh qahramonlari Temurlang, Varrava hamda doktor Faustning qismatlari bir-biriga o’xshab inqiroz va fojea bilan tugaydi. Har uchalla asarda ham inson fojeasi bosh qahramonlarning ma’lum g’oya yoki moddiyatga mukkasidan ketishi va chegara bilmas ishtiyoqi tufayli sodir bo’ladi.
“Buyuk Temurlang” asari qahramonining kuchga berilishi va butun dunyoni bosib olishga bo’lgan intilishi, “Maltalik yahudiy” asari bosh qahramoning boylikka ruju qo’yishi hamda Doktor Faustning ilmga bo’lgan chegarasiz ishtiyoqi ularning inqirozi va fojeasiga sabab bo’ldi.

Shunga ko’ra Kristofer Marloning ushbu asarlari kitobxonlarga bosh qahramonlar timsolida tasvirlangan illatlaring oqibatlarini ko’rsatib, ularda saxiylik, soddalik, shukr qilish kabi oliyhimmat fazilatlarni tarbiyalaydi.

Ilmiy rahbar _____________________________ f.f.d, professor Baqoyeva M.Q.

Magistratura talabasi __________________________Pulatova M.T.

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION

BUKHARA STATE UNIVERSITY

Faculty: Philology Master's student: Pulatova M.T

Department: English literature Scientific supervisor: Baqoyeva M.Q

Academic year: 2017-2018 Speciality: Literature (English)

**ANNOTATION OF THE MASTER'S DISSERTATION OF THE THEME "THE DESCRIPTION OF THE CRISIS AND TRAGEDY OF POWERFUL PERSONAGES IN CHRISTOPHER MARLOWE'S OUTSTANDING TRAGEDIES"**

**The actuality of the theme of dissertation**. In our country great attention is paid to upbringing young generation. Our youth should be perfect from different angles, they should be healthy, smart, strong and know foreign languages as well.

As we know literature is important for learning foreign languages from one side, and for broadening readers' intellectual possibility from another side.

Christopher Marlowe's great tragedies teach us to be more generous and reserved. They show the tragedy of human beings, who are too captured by different ideas and so like.

Besides, these works are not widely investigated in our country and we tried to show the main reasons of the tragedies of the powerful personages in them.

**The aim and tasks of the dissertation.** The aim of the research work is to study the reasons of human tragedy in Christopher Marlowe's "Tamburlaine the Great", "The Jew of Malta" and "The Tragical history of doctor Faustus". This aim puts the pollowing tasks before us:

- to study the peculiar features of an outstanding representative of English Renaissance Christopher Marlowe's literary activity;
- to study the role of his works in the development of English literature;
- to read and analyze given tragedies;

- to reveal the reasons of the crisis of the main heroes in these works.

**The object and subject of dissertation.** The object of the work is the tragedies “Tamburlaine the Great”, “The Jew of Malta” and “The tragical history of doctor Faustus” by Christopher Marlowe.

The subject of the work is the crisis and tragedies of the main heroes in these three tragedies of Christopher Marlowe.

**Methodological basis and methods of the dissertation.** The works and decrees of the President of the Republic of Uzbekistan on education and learning foreign languages, the scientific works of the specialists of this sphere on the theme make the methodological basis of the research.

In the process of writing of this research we used the methods of literary analysis and comparative analysis. These methods helped us to study our subject more profoundly.

**The scientific novelty of the dissertation.** Christopher Marlowe’s life and literary activity and his tragedies “Tamburlaine the Great”, “The Jew of Malta” and “The Tragical history of doctor Faustus” have been investigated by such Russian, Uzbek and English-American literary critics as A.T.Parfyonov, Георгиевская В.В, I.N.Puchkova, A.Yu.Yakubovskiy, X.Karomatov, O.Dadaboyev, B.Axmedov, H.Lamb, J. Marozzi.

The novelty of our work is manifested in studying these tragedies from another angle. We try to research the reasons of human crisis and tragedy in the works.

**Practical and theoretical value of the research.** The materials given in the dissertation may be used in delivering the lectures and holding practical lessons of English literature, literary criticism, theory of literature.

**The structure of the dissertation.** This master’s dissertation consists of introduction, 3 chapters, 8 items of the chapters, conclusion and the list of used literatures.

**The main results of the research.** The following dissertation paper passed the preliminary defence and was recommended to the main defence. 4 articles in the scientific manuals were given according to the theme of the dissertation.

**Generalization of conclusion and advice.** Christopher Marlowe's great tragedies teach us to be more generous and reserved. They show the tragedy of human beings, who are too captured by different ideas and so like.

The reason of the tragedy of the main hero in "Tamburlaine the Great" can be seen in his obsession of his own power, the cause of the crisis and tragedy of the main hero in "The Jew of Malta" can be explained by his affection to the wealth and the motive of the tragedy of the main hero in "The Tragical history of Doctor Faustus" can be seen in his limitless passion for science.

Scientific supervisor ______________________________ professor Baqoyeva M.Q.

Student of master's degree ___________________________Pulatova M.T.

## KIRISH

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi:** Mazkur ilmiy ishning dolzarbligi, bir tomondan, hozirgi davrda buyuk o'tmishdoshlarimizning faoliyatiga qiziqishda namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, respublikamizda ingliz tilini, ingliz tilida yozilgan asarlarni o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyoj bilan belgilanadi. Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Yoshlarimizning har tomonlama kamol topishlari, sog'lom fikrlashlari, chet tillarini o'rganishlari, bardam-baqquvat hamda zukko bo'lishlari bugunning talabidir.

Xususan, chet tillarini o’rganishda ko’prik vazifasini bajaruvchi - adabiyot yoshlarni tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga egadir. Ingliz adabiyotining yorqin namoyandasi, Kristofer Marloning buyuk fojealari bizda saxiylik, soddalik, shukr qilish kabi oliyhimmat fazilatlarni tarbiyalaydi. Shu nuqtai nazardan, ushbu asarlarning yurtimizda keng o’rganilmaganligi ham ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti:** Ushbu magistrlik dissertatsiyamizning predmeti sifatida Kristofer Marloning “Buyuk Temurlang”, “Maltalik yahudiy” hamda “Doktor Faustning fojeaviy taqdiri” asarlari jalb qilindi va ushbu tragediyalardagi qudratli shaxslar inqirozi va fojeasi tasvirlari tadqiqotning obyekti sifatida xizmat qildi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:** Mazkur ishni yozishdan maqsad Kristofer Marloning “Buyuk Temurlang”, “Maltalik yahudiy” hamda “Doktor Faustning fojeaviy taqdiri” asarlarida inson fojeasi sabablarini o’rganishdir.

Ilmiy ish maqsadi oldimizga quyidagi vazifalar qo’yilishini taqozo etdi:

- Ingliz uyg’onish adabiyotining atoqli namoyandasi Kristofer Marloning ijod yo’lini o’rganish;
- Kristofer Marloning “Buyuk Temurlang”, “Maltalik yahudiy” hamda “Doktor Faustning fojeaviy taqdiri” asarlarini o’qib chiqish hamda tahlil qilish;
- Asarlardagi qudratli shaxslar inqirozi va fojeasini o’rganish va ularning sabablarini oydinlashtirish.

**Ilmiy yangiligi**: Kristofer Marloning ushbu asarlari haqida qator ilmiy asarlar yaratilgan. Bularga rus adabiyotshunoslari A.T.Parfyonov, Георгиевская В.В, I.N.Puchkova, A.Yu.Yakubovskiy, o’zbek adabiyotshunoslari X.Karomatov, O.Dadaboyev, B.Axmedov, ingliz-amerika adabiyotshunoslari H.Lamb, J. Marozzi va boshqa asarlarni misol qilib olish mumkin.[1]

---

[1] Parfyonov A.T. “Кристофер Марло и легенды Востока и Запада. – Литература, 1980.
Георгиевская В.В. «Филологические идеи Никколо Макиавелли в трагикомедии Кристофера Марло «Малбтийский Еврей». В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. XIX междунар. науч.-практ. конф. Часть II. – Новосибирск: СибАК, 2013.

Bizning ishimizning yuqorida sanab o’tilgan ishlardan farqi va yangiliki shuki, biz Kristofer Marloning “Buyuk Temurlang”, “Maltalik yahudiy” hamda “Doktor Faustning fojeaviy taqdiri” asarlarini tahlil qilish va ulardagi qudratli shaxslar inqirozi va fojeasi sabablarini oydinlashtirishga harakat qildik.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:** Ushbu disertatsiya himoyasida quyidagi holatlar muhokama uchun kengash a’zolari hukmiga havola etiladi:

1. Ingliz uyg’onish adabiyotining atoqli namoyandasi Kristofer Marloning ijod yo’li va Ingliz adabiyoti rivojiga qo’shgan hissasi;
2. Kristofer Marloning “Buyuk Temurlang”, “Maltalik yahudiy” hamda “Doktor Faustning fojeaviy taqdiri” asarlari tahlili;
3. Asarlardagi qudratli shaxslar inqirozi va fojeasi va ularning sabablari.

**Tadqiqot mavzusi bo’yicha adabiyotlar sharxi:** Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning ilm-ma’rifat haqidagi asarlari[2] hamda taniqli olimlar Rui Gonsales de Klavixo, A.T.Parfyonov, O.Dadaboyev, Lamb H., J.Marozzilarning Kristofer Marlo hamda uning fojealari talqin etilgan yuqoridagi asarlari tadqiqotimizning nazariy asosi sifatida xizmat qildi.

**Tadqiqotda qo’llanilgan metodikaning tavsifi**: Ushbu tadqiqotni yozish jarayonida badiiy tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Bu usullar bizga ishimizning obyektini yanada chuqurroq o’rganishga yordam berdi.

---

Puchkova I.N.«Анализ лексико-семантического поля “war” в драме Кристофера Марло «Тамерлан Великий».

Якубовский А. Ю. Тимур “опыт краткой характеристики” // Вопросы истории. - Москва. 1946.

Караматов Х.С. Истоки, оригинал и узбекский перевод трагедии Кристофера Марло «Тамерлан Великий». Автореферат на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Ташкент, 1990.

Дадабоев.О. О степени исторической достоверности образа Амира Темура в драме К.Марло «Тамерлан Великий». Вестник Челябинского государственного университета. 2013.

Axmedov B. Sohibqiron Temur, - Toshkent, 1996.

Lamb H. Tamerlane the Earth Shaker - London: Kessinger Publishing, 2005.

Marozzi J. Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World. Harper Perennial. - UK , 2005.

[2] Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent – Ozbekiston. 2017

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:** Hozirgi adabiy aloqalar har tomonlama kengayib borayotgan davrda diqqatga havola etilayotgan bu ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyat kasb etishi tabiiy. Undagi tahlil va tadqiqotlar natijasi bo'lgan fikr-mulohazalardan oliy o'quv yurtlarining filologiya yo'nalishiida adabiyotshunoslik bo'yicha ma'ruzalar va maxsus kurslarda, chet el yozuvchilari adabiy faoliyatini o'rganishda, turli xil dasturlar, qo'llanmalar tuzishda foydalanish mumkin.

**Ish tuzilmasining tavsifi:** Mazkur magistrlik tadqiqot ishi Kirish, uch bob, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida ishning umumiy tavsifi bayon etilgan. Tadqiqotning I bobida ingliz Uyg'onish davri adabiyotining atoqli namoyandasi, Kristofer Marlo ijod yo'lining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. "Amir Temur shaxsi va "Buyuk Temurlang" asaridagi bosh qahramon fojeasi" deb nomlangan II bobda "Buyuk Temurlang" asarining yozilishiga asos bo'lgan buyuk sarkarda Amir Temurning XVI asrda G'arbdagi mavqei, asardagi g'oya va mazmunni ochib berishda bosh qahramon timsolidagi ziddiyatlarning xususiyatlari, asarda haqiqat va badiiy to'qimaning o'zaro uyg'unlashuvi o'rganiladi. Magistrlik dissertatsiyasining III bobi «"Maltalik yahudiy" va "Doktor Faustning fojeaviy taqdiri" asarlarida bosh qahramon inqirozi» deb nomlanib, unda Kristofer Marloning "Maltalik yahudiy" asariga makiavellizm g'oyalarining ta'siri, ushbu asardagi boylikka ruju qo'ygan shaxs timsoli tahlil qilinadi hamda Kristofer Marloning ruhini iblisga sotgan qahramoni Faust fojeasi o'rganiladi.

Ish bo'yicha aniqlangan nazariy va amaliy natijalar tadqiqot ishimizning Xulosa qismida bayon etiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida 50ta adabiyotlar va internet manbalari nomi keltirilgan.